SIRDARYO VILOYATI XOVOS TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2024 - yil 29 - may 138-9-129-Q/24 Xovos tuman hokimligi

Xovos tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga hududlarni (mikrohudud) biriktirish to‘g‘risida.

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 25-moddalari, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomning 39-bandiga asosan tumanda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish jarayonida, umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1.Maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) tavsifi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish umumta’lim muassasalari pedagog xodimlari tomonidan bolalarni birma-bir ro‘yxatga olish orqali amalga oshirilsin.

3.Tuman hokimi o‘rinbosari N.Abdullayev, tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (M.Shiraliyev), umumta’lim maktablari rahbarlariga:

Maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga, umumta’lim muassasasi bitiruvchilarini ta’limning keyingi bosqichiga to‘liq qamrab olish, o‘quvchilar, o‘quvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar

ko‘rish vazifasi topshirilsin.

4. Belgilansinki, tumandagi umumta’lim muassasalari rahbarlari o‘zlari rahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o‘z vaqtida umumta’lim muassasasiga o‘qishga jalb qilish uchun mas’ul hisoblanadi.

5.Xovos tumani hokimi o‘rinbosari (N.Abdullayev), O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (B.Tolibov)ga mahalla fuqarolar yig’inini maktab yoshidagi bolalarni umumta’lim muassasalariga jalb etish jarayonida tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga amaliy yordam berish tavsiya etilsin.

6.Tuman hokimligi axborot matbuoat xizmati (S.Maxmudov) ga;

7.Mazkur qaror mahalliy matbuotda chop etilsin va uning ijrosi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

8.Qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari N.Abdullayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.v.b **I.Nurmatov**

Xovos tuman hokimining
2024-yil 29-maydagi
138-9-129-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Xovos tumanida umumta’lim maktablariga biriktirilgan mikrohududlar

№	Maktab raqami	Maktab manzili	Mikrohudud chegarasi
1	1-maktab	Xovos tumani, Do‘stlik MFY, 14-uy	Do‘stlik mahallasiga kiruvchi Iftixor, Omad, Afrosiyob, Bekzod, Birlik, Rayhon, Chilonzor, Chehra, Shijoat, Ipakyo'li, Temiryo‘lchi, Ḳhoxbekat, Shifokorlar, Parvoz, Tadbirkorlar, Yuksak hayot,Toshkent,Taraqqiyot,Istiqbol, Al-Buxoriy,Olim Xo‘jayev, Sheroziy, Farovon, Doni Zokirov, Sharq ziyosi, Islomobod, Minor, Forobiy, Tong, Ziyokor, Xiyobon
2	2-maktab	Xovos tumani, Qora qum MFY, 48-uy	Qora qum mahallasining, Charog‘on, Abadiyat, Shaffof, Jilg‘a, Qoraqum, Yangi guzar, Hosil, Farovonlik, Barqarorlik ko‘chalari.
3	3-maktab	Xovos tumani Sharqobod MFY Ko‘hna ko‘chasi 4-uy	Sharqobod MFY mahallasidagi 3-maktab hududiga kiradigan ko'chalar. Sharqobod ko‘chasi,Tozalik ko‘chasi.Ko‘hna ko‘chasi, Parchayuz ko‘chasi ,
4	4-maktab	Xovos tumani, Xovosobod MFY, 15-uy	Xovosobod mahalla fuqarolar yig‘iniga kiruvchi: Xovosobod, Navbahor, Obod, Bahorikor, Navguzar, Sahar, Sarishta, G‘alaba, Ko‘hna Xovos, Xovotog‘ ko‘chalari
5	5-maktab	Xovos tumani, Farhod MFY, 5-uy	Farhod MFY va Chiroyning barcha ko‘chalari
6	6-maktab	Xovos tumani,Gulbahor MFY, 13-uy	Gulbahor MFY Qo‘ngirot,Navoiy, Subxidam, Shabboda, Birdamlik, Sayqal, Nurchilar, Obod turmush MFY ning barcha ko‘chalari
7	7-maktab	Xovos tumani Sohibkor MFY Armug‘on ko‘chasi 7-uy	Sohibkor mahallasining barcha ko‘chalari, Qayirma MFY ning Bog‘iston, Saxovat, Bog‘u-Bo‘ston, Bunyod, Hidoyat, Muruvvat, Yangi asr, Zakovat, Yangi bo‘ston ko‘chalari
8	8-maktab	Xovos tumani, Oqchangal MFY, Zomin ko‘chasi 42-uy	Oqchangal MFY dagi Zomin ko‘chasi 1-105 ,Oqibat ko‘chasi 1-8, Totuvlik ko‘chasi , Shodyona ko‘chasi, Oqchangal ko‘chasi, Nuryog‘di ko‘chalari
9	9-IDUM	Xovos tumani, Chamanzor MFY, Toshkent ko‘chasi 3-uy	Chamanzor MFY barcha ko‘chalari, Bunyodkor MFYdan Xovos ko‘chasi va Istiqlol MFYdan Minor, Shifokorlar, Forobiy, Zavqiy ko‘chalari.
10	10-maktab	Xovos tumani, Qahramon MFY, Shox 1/1-uy	Qahramon MFY ga kiruvchi Shox, O‘rtoqlik, Bolajon, Vodiy , Quvvat, Bo‘ston, Yasmin, Mustaqil diyor, Zamin, Buxoro, Xolis, Olchazor, Cho‘lquvar , Sharshara, Sokinlik, Sayohat, Ezgulik ko‘chalari
11	11-maktab	Xovos tumani, Yangiyer MFY, Yosh avlod ko‘chasi	Yangiyer MFY barcha ko‘chalari
12	12-maktab	Xovos tumani, Yetti guzar MFY, Yuksak yo‘l k-si.	Yetti guzar MFY, Ittifoq, Mehnatkash , Sharq yulduzi, Yangi mahalla , Madaniyat , Kamolot , O‘zgarish , Yangi zamon , Yuksak yo‘l, Koinot , Yetti guzar , Kelajak , Oltin vodiy Karvonsaroy MFY, Gulzor, Karvon yo‘li, G‘uncha , O‘qituvchilar , Yangi turmush, Orom , Karvonsaroy, Porloq, Parvoz, Kabutar , Zargar
13	13-IDUM	Xovos tumani, Tinchlik MFY, O‘rikzor 3-uy	Tinchlik MFY Shoxbekat, Tabassum, Diyor, G‘uncha, Bodomzor, Qadr, Sebzor, Olmazor, Al-Buxoriy, Osuda Zamon, Binafsha, O‘rikzor, A.Nabiyev, Xiyobon
14	14-maktab	Xovos tumani Tinchlik MFY Maktab ko‘chasi 103-uy	Tinchlik mahallasi ko'chalari: Maktab ko‘chasi, Bahoriston, Maorifchilar, Sa'diy, Islomobod, Al-Buxoriy, Boboniyozova tupik ko‘cha, A.Yassaviy 12-19 uylar, Tadbirkorlar 87-127 uylar, Navqiron Istiqlol mahallasi ko‘chalari: Islomobod ko‘chasi 800 metr, Sharq Ziyosi ko‘chasi 300 metr, Istiqbol ko'chasi 130 metr, Minor ko‘chasi 200 metr, Shifokorlar 200 metr, Farobiy ko‘chasi 300 metr, Ziyokor 300 metr, Toshken ko‘chasi 400 metr.
15	15-maktab	Xovos tumani, Obod turmush MFY, Yoshlik 52 -uy	Obod turmush MFY, Yoshlik, Qanoat,Chorvador ko‘chalari
16	16-maktab	Xovos tumani O‘zbekiston to‘kinchiligi MFY Sog‘lom avlod ko‘chasi	O‘zbekiston to‘kinchiligi MFY ga kiruvchi (Zomin,Sog‘lom avlod, Dehqonobod,Yuksalish, Obod turmush, Nuryog‘du, Nurobod, Nurli kelajak, Birlashgan,Yurtobod,Ahillik, E'tibor) barcha ko‘chalari

17	17-maktab	Xovos tumani, Mustaqillikning 25 yilligi MFY,(Qo'qoni-qarapchi) maxallasi	Mustaqillikning 25 yilligi MFY ga kiruvchi Chilangar, Ko‘klam, Yulduz, Qo‘qoni-qarapchi, Buyuk avlod, Harbiylar va Uchko‘prik ko‘chalari.
18	18-maktab	Xovos tumani, Binokor MFY, Yong'oqli ko‘chasi 1-uy	Binokor MFYga kiruvchi (Hamroz, Hamkor, Binokor, Sadoqat, Yangilik, Yong‘oqli, E'zoz, Pillakor) barcha ko‘chalari
19	19-maktab	Xovos tumani, Mustakillik MFY, 2-uy	Mustaqillik mahallasiga kiruvchi Turkiston,Yoshlar,Ishchilar,Xalqobod,Ko‘chatchilik,Gulabod,Nurafshon, Moviy, Mustaqillik ko‘chalari,
20	20-maktab	Xovos tumani, O‘zbekiston To‘kinchilik MFY,	O‘zbekiston To‘kinchiligi MFY, Adir,Davr,Vijdon,To‘kinchilik,Baxt
21	21-maktab	Xovos tumani, Afrosiyob MFY,88-uy	Afrosiyob MFY kiruvchi Nurli diyor, Dilkash,Nastarin, Rovot, Afsona, Gumbaz, Madatkor, Buyuk turon, Sokin, Bekobod
22	22-maktab	Xovos tumani, Mustaqillikning 25 yilligi MFY, Navro‘z ko‘chasi 21-uy	Navro‘z mahallasi: Ziyo,Samarqand, Registon, Registon-1,Chardora, Navro‘z-1. Chambil qishlog‘i: Paxtchi,Ma'rifat-1,Uchterak-1,Uchterak ko‘chalari
23	23-maktab	Xovos tumani Qayirma MFY Uzumzor ko‘chasi 1-uy	Nurli Kelajak MFY Qayirma ko'chasi,Sohil ko‘chasi , Anjir ko‘chasi, Turon ko‘chasi. Sohibkor MFY Bog‘iston ko‘chasi
24	24-IDUM	Xovos tumani, Bo‘ston MFY, Yangibog' ko‘chasi 12-uy	Bo‘ston mahallasiga kiruvchi (Farg‘ona, Zarafarobod, Baxmal, Ibn Sino, Shifo, Alanga, Mulkdor, Sug‘diyona, Toshkent, Kamalak, Yuksalish, Chashma, Yangibog‘, Samarqand) barcha ko‘chalari
25	25-maktab	Xovos tumani, Paxtakor MFY, 1-uy	Paxtakor mahalla fuqarolar yig‘ini: Mexribon, Behizor, Fermerlar, Alpomish, Ko'klam, To‘maris, Bog'cha, Tantana, Oq yo'l, Sharq, Nodira Ulug‘bek, ko‘klamzor, Shabnam, Yangi uchastka ko‘chalari
26	26-maktab	Xovos tumani, Husnobod MFY, 1-uy	Husnobod mahallasiga kiruvchi (Xusnobod. Zarafshon, Meros, Mehridaryo, Navnihol, Matonat, Mutafakkir, Fayzli, Sado, Obodlik, Erkin, Inoq, Shotut, Ezgulik, Obodzamon, Qadriyat, Shox) barcha ko‘chalari
27	27-maktab	Xovos tumani “Qahramon” MFY Qahramon ko‘chasi	Qahramon mahallasiga kiruvch Qahramon, Havaskor, Bolalar dunyosi, Mehnatobod ko‘chalari
28	28-maktab	Xovos tumani Oqchangal MFY Oqibat ko‘chasi	Xovos tumani Oqchangal mahallasi Oqibat ko‘chasi, Zomin ko‘chasi,Shodiyona ko‘chasi, Qoraqir ko‘chalari
29	1-IDUM	Xovos tumani, Gulbahor MFY, Ma'rif ko‘chasi 9-uy	Gulbahor MFYga kiruvchi Maorif, Yaxshilik, Bog‘ishamol, Shabboda, Gulbahor, Subhidam ko‘chalari.
30	30-IDUM	Xovos tumani Yangi O‘zbekiston MFY Bunyodkor ko‘chasi	Xovos tuman Chamanzor MFY, Bunyodkor MFY Yangiyer shahar Navro‘zobot MFY, Yangi O‘zbekiston MFYga kiruvchi ko‘chalar (Tabobat, Bunyodkor, Shalola, Yangi Ravot, Muxtasham, Muxandis, Ravonyo‘li, Shukurona ko‘chalari)
31	31-maktab	Xovos tumani, Sharqobod MFY, Barkamol ko‘chasi	Sharqobod mahallasi ko‘chalari: Kashfiyot, Nishona, Ziyolilar, Karvonboshi, Bepayon, Hunarmand, Ofarin, Imkoniyat, Mo‘lchilik, Beshyuz, Navqiron